

Qayd r. 04-06/44-son «10» sentabr 2020 y.

TASDIQLANGAN
«ANOR BANK» AJ
Kuzatuv kengashi tomonidan

10 sentabr 2020 yil
(2-son bayonnoma)

Kuzatuv kengashi raisi

_____ Sh.K. Karimbayev

«ANOR BANK»
AKSIYADORLIK JAMIYATINING
MANFAATLAR TO'QNASHUVINING OLDINI OLISH
VA ULARNI BOSHQARISH BO'YICHA
SIYOSATI

Toshkent - 2020

1 BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu "ANOR BANK" aksiyadorlik jamiyatining manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va ularni boshqarish bo'yicha siyosati (keyingi o'rinlarda - Siyosat) komplaens xavflarni boshqarish tizimining bir qismi bo'lib, "ANOR BANK" AJ (keyingi o'rinlarda - Bank)da manfaatlar to'qnashuvlarining, shu jumladan potentsial to'qnashuvlarning oldini olishning boshqaruv va tashkiliy asoslarini, ularni minimallashtirish va/yoki uning oqibatlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuvlarini, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo'lganlarni boshqarishning asosiy maqsadlari, vazifalari va tamoyillarini belgilaydi.

1.2. Ushbu Siyosat "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 34 va 37-moddalari, "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida"gi nizom (ro'yxatdan o'tgan: AV 3254-son, 30-iyun, 2020 yil) talablariga binoan ishlab chiqilgan.

1.3. Bank o'zining barcha xodimlaridan ushbu Siyosatda belgilangan muayyan axloqiy tamoyillar, yondashuvlar va talablarga rozi bo'lishini kutadi.

1.4. Ushbu Siyosat Bank tomonidan manfaatlar to'qnashuvini boshqarish sohasidagi boshqa ichki me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

1.5. Ushbu Siyosatda ishlatiladigan atamalar va ta'riflar:

Yaqin qarindoshlar - turmush o'rtoqlar, bolalar va ota-onalar, farzandlikka oluvchilar va asrab olinganlar, aka-uka va opa-singillar, shu jumladan, tug'ishgan emas aka-uka va opa-singillar, bobo-buvilar, nevaralar.

Insayderlik ma'lumotlari - insayderlik ma'lumotlari deganda Bankning insayder ma'lumotlari, Bank mijozlari va kontragentlarining insayder ma'lumotlari va Bankka taqdim etiladigan ma'lumotlar tushuniladi. Insayderlik ma'lumotlari deganda, aniq va to'liq bo'lgan, tarqatilmagan va oshkora qilinmagan (shu jumladan, tijorat, rasmiy, bank va aloqa sirlarini (pochta pul o'tkazmalari to'g'risida) va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar), tarqatilishi va oshkora qilinishi moliyaviy vositalar, valyuta va (yoki) tovarlar bahosiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar nazarda tutiladi.

Mijoz - bank tomonidan xizmat ko'rsatiluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

Komplaens - bu bank xodimlarining qonun hujjatlariga zid bo'lgan harakatlarining oldini olishga va qonun hujjatlariga rioya qilish asosida korporativ biznes odob-axloq qoidalarini joriy etishga qaratilgan tashabbuslar majmuidir.

Kontragent – bank bilan tuzilgan shartnoma taraflaridan biri bo'lgan va mijoz hisoblanmaydigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Maxfiy ma'lumotlar - tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar, shaxsiy ma'lumotlar va bank sirlari. Maxfiy ma'lumotlar, shuningdek, ommaviy bo'lmagan shaxsiy ma'lumotni yoki ushbu ma'lumotni maxfiy ravishda saqlanishi va faqat taqdim etilgan maqsadlar uchun ishlatilishi shart bo'lgan tashqi manba (masalan, bank mijozi yoki boshqa uchinchi tomon) tomonidan taqdim etilgan ma'lumotni bildiradi. Maxfiy ma'lumotlar har qanday shaklda (yozma, og'zaki, elektron va boshqalar) mavjud bo'lishi mumkin.

Manfaatlar to'qnashuvi- bankning va/yoki uning xodimlarining va/yoki bir yoki undan ortiq mijozlar va/yoki kontragentlarning mol-mulki va boshqa manfaatlari o'rtasidagi bevosita yoki bilvosita qarama-qarshilik bo'lib, bir tomonning harakati (harakatsizligi) natijasida boshqa tomon uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan holat, shu jumladan:

- bank aksiyadorlarining manfaatlari o'rtasidagi, bank boshqaruvi va nazorat organlari manfaatlari va aksiyador (aksiyadorlar)o'rtasidagi korporativ ziddiyat;

- majoritar aksiyadorlar (katta aksiyalar paketiga ega bo'lgan aksiyadorlar) va minoritar aksiyadorlar (kichik aksiyalar paketiga ega bo'lgan aksiyadorlar) o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi.

Manfaatlar to'qnashuvi, shu jumladan bank xodimining shaxsiy manfaatlari (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) uning xizmat vazifalarini to'g'ri, ob'ektiv va xolis bajarishiga (vakolatlarini amalga oshirishga) ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyatda yuzaga keladi.

O'z vazifalarini to'g'ri bajarishiga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xodimning shaxsiy qiziqishi ostida pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlar yoki o'zlari uchun yoki uchinchi shaxslar uchun imtiyozlar shaklida daromad vazifalarini bajarishda uchinchi shaxslardan daromad olish imkoniyati tushuniladi.

Bank bo'linmalari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, shuningdek, odatdagi iqtisodiy faoliyat doirasida savdo shartlari bo'yicha muzokaralar chog'ida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar, uning shartlari oshkor etilishi yoki muzokaralar taraflariga ma'lum bo'lishi kerak bo'lgan holatlar manfaatlar to'qnashuvi hisoblanmaydi.

Raqobatchi tashkilot/ raqobatchi - quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi tashkilot: bank va bank-investitsiyaviy, lizing, aktivlarni boshqarish, elektron to'lovlar, elektron savdo maydonchalari, raqamli kompaniyalar va korxonalar.

Sovg'alar-odatiy narxni to'lash majburiyati yo'q moddiy yoki nomoddiy shakldagi har qanday qimmatliklar shu jumladan, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, foyda va mulkiy harakterdagi xizmatlar (ish, xizmatlar, o'yin-kulgi, dam olish, transport xarajatlarini to'lash, kreditlar, chegirmalar, shu jumladan, uy-joy, xayriya jamg'armalari, xayr-ehsonlar va boshqalar), va yana bankdagi ish bilan bog'liq holda olingan yoki topshirilgan mol-mulk tushuniladi. Biznes nonushta/tushlik/kechki ovqat; ko'ngilochar va o'quv tadbirlari sovg'a deb qaralishi mumkin.

Xavfsizlik bo'limi - Bankning umumiy xavfsizlik boshqarmasi.

Huquqiy xavf- bu qonunlar, tartibga soluvchi organlarning nizomlari, qoidalar, reglamentlar, ko'rsatmalar, ta'sis hujjatlari kabi ichki va tashqi huquqiy normalarni buzish yoki ularga rioya qilmaslik natijasida daromad, kapital yo'qotishlarning yoki zararlar kelib chiqishining joriy yoki kelajakdagi xavfi.

Xodim-bank bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan har qanday shaxs.

Obro' xavfi (ish obro'sini yo'qotish xavfi) – mijozlar, kontragentlar, aksiyadorlar (ishtirokchilar), biznes hamkorlar, tartibga solish organlari va boshqalar tomonidan bank imidjining noto'g'ri qabul qilinishi tufayli kredit tashkilotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar xavfi.

Qonunchilik va tartibga soluvchi talablarga nomuvofiqlik xavfi - bank faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari yoki tartibga soluvchi organning (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki) talablari natijasida to'xtalishlar sonining ortishi kuzatilsa va korxonalar faoliyati siyosatini o'zgartirilishiga olib kelsa, ularga o'zgartirishlar kiritishni anglatadi. Ushbu xavf tartibga solish xavfi deb ataluvchi xavfga analog hisoblanadi.

Qarindoshlar – yaqin qarindoshlar, oila a'zolari, amakivachchalar, tog'avachchalar, amnavachchalar, xolavachchalar, turmush o'rtoqlarining farzandlari, tog'a va xolalar, jiyalar, turmush o'rtoqlarining ota-onasi, farzandlarining va ota-onalarining turmush o'rtoqlari.

Ichki audit xizmati - o'z faoliyatini Bankning ichki audit bo'limi to'g'risidagi Nizomga muvofiq amalga oshiradigan ichki audit bo'limi.

Xodimning oila a'zolari - qarindoshlik darajasidan qat'i nazar, xodim bilan birga yashaydigan va u bilan birgalikda uy xo'jaligini yuritadigan shaxslar, shuningdek xodimga moddiy qaram bo'lgan yoki xodim moddiy jihatdan qaram bo'lgan shaxslar.

Ushbu badda keltirilgan atamalar va ta'riflar faqat ushbu Siyosatga nisbatan qo'llaniladi va Bankning boshqa mahalliy hujjatlariga nisbatan izoh yoki tushuntirishlar uchun asos bo'la olmaydi.

2 BO'LIM. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

2.1 Ushbu siyosatning maqsadi manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, o'z vaqtida aniqlash, nazorat qilish va hal etish (chiqarib tashlash) tartib-taomillari va mexanizmlarini aniqlash, uning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni mustahkamlash, manfaatlar to'qnashuvi,

shu jumladan vujudga kelishi mumkin bo'lgan holatlarda bank xodimlarining xatti-harakati qoidalarini aniqlashdan iborat.

2.2 Ushbu siyosatning asosiy vazifalari:

– mijozlar va hamkorlar tomonidan bankka bo'lgan ishonchni oshirish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni korporativ boshqaruvning yuqori standartlariga rioya qilgan holda ochiqlik, oshkorlik va istiqbolni belgilash tamoyillariga muvofiq ta'minlash;

– Bankning ish obro'sini, shu jumladan xalqaro miqyosda oshirish maqsadida xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarga rioya qilish;

– yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish tamoyillarini, boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlarini va manfaatlar to'qnashuvi holatlarida Bank xodimlarining xulq-atvor normalarini belgilash;

– bank tomonidan manfaatlar to'qnashuvini boshqarish (oldini olish, aniqlash va hal etish) bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shu jumladan, yuzaga kelishi mumkin bo'lganlari to'g'risida xodimlarga umumiy ma'lumot berish, shuningdek bunday vaziyatlarni hal etishning eng maqbul usullarini aniqlashga yordam berish;

– bank uchun amal qilish majburiy bo'lgan manfaat to'qnashuvlarni boshqarish standartlarini belgilash, shu jumladan, potentsial to'qnashuvlar uchun ham;

– manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda bank boshqaruvi va nazorat organlari va uning xodimlari manfaatlarini muvozanatini saqlash.

3 BO'LIM. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISHDAGI POTENSIAL XAVFLAR VA MANFAATLAR TO'QNASHUVI TURLARI

3.1 Manfaatlar to'qnashuvi har qanday sohaga, shu jumladan bank faoliyatiga va qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatga xosdir. Agar ushbu mojaroga nisbatan oshkor qilish, aniqlash, baholash va boshqarish kabi o'z vaqtida zarur choralar ko'rilgan bo'lsa, o'z-o'zidan, manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi bankning ichki tartib-taomillarini buzmaydi.

Tegishli choralar ko'rilmagan manfaatlar to'qnashuvi (yoki bunday nizolarning mavjud tuyulishi) xodimlar va boshqa shaxslar, shu jumladan mijozlar, aksiyadorlar, kontragentlar, davlat va davlat organlari, kasaba uyushmalari va kasb birlashmalari, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari nazarida Bank uchun xavf hisoblanadi.

3.2 Bankning manfaatlar to'qnashuvini noto'g'ri boshqarish natijasida quyidagi xavf turlari yuzaga kelishi mumkin:

– huquqiy va me'yoriy talablarga rioya qilmaslik xavfi;

– obro' xavfi (ish obro'sini yo'qotish xavfi);

– huquqiy xavf;

– moddiy moliyaviy yo'qotishlar xavfi.

3.3 Manfaatlar to'qnashuvi quyidagi turlarda bo'lishi mumkin:

– Bank mijozlari o'rtasida, shu jumladan mijozlardan birining (mijozlar guruhi) manfaatlarini boshqa mijozning manfaatlariga zid bo'lgan holatlarda;

– mijoz va Bank o'rtasida, shu jumladan bank foydasiga investitsiya maqsadlarini buzgan holda yoki mijozning manfaatlarini boshqa tarzda buzgan holda bozordan tashqari narxlarda mijoz bilan bitimlar tuzilganda;

– mijoz va bank xodimi o'rtasida, shu jumladan, xodim shaxsiy manfaat olish maqsadida bir mijozga boshqa mijozning manfaatlariga zarar yetkazgan holda imtiyozlar bergan taqdirda;

– Bank va uning xodimi o'rtasida, shu jumladan xodim o'z mansab mavqei/maxfiy ma'lumotlaridan shaxsiy manfaat ko'rish maqsadida noqonuniy foydalangan hollarda;

– minoritar aksiyadorlarning bank faoliyatiga hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarga jiddiy ta'sir ko'rsata olmasligi;

– bitimlar va affillangan shaxslar bilan yirik bitimlarni belgilangan tartibiga rioya qilmasdan tuzish;

– boshqaruv organlari tomonidan bankning moliyaviy ahvolidan yomonlashishiga olib kelishi mumkin bo'lgan qarorlar qabul qilish.

3.4 Manfaatlarga to'qnashuvining tipik namunalari ro'yxati:

i. Xodim tomonidan o'z foydasi uchun mehnat vakolatlarini mijozning manfaatlariga zarar yetkazgan holda oshirib yuborilishi.

ii. Xodimning yaqin qarindoshlari, oila a'zolari va shaxsiy manfaatlari bog'liq bo'lgan boshqa shaxslarga nisbatan kadrlar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi.

iii. Xodimning huquqlari unga yoki xodim shaxsan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslarga tegishli bo'lgan/nazorat qilinadigan tovarlarni sotib olish to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishi.

iv. Xodim o'z qarindoshi ishlaydigan bo'linma faoliyatini tekshirishni amalga oshirishi.

v. Xodimning o'zi yoki uning shaxsiy qiziqishi bo'lgan boshqa shaxs uchun mehnat vazifalarini bajarishda unga ma'lum bo'lgan ma'lumotlardan tijorat bitimlarini amalga oshirishda foyda yoki raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun foydalanishi.

vi. Xodim tomonidan mijozlarga operatsiyalar bo'yicha faqat bir ishtirokchining moliyaviy vositalari bo'yicha moliyaviy bozorning boshqa ishtirokchilariga zarar yetkazgan holda investitsiyaviy maslahatni berishi. Potensial bitim/bitimlar bo'yicha ommaviy bo'lmagan axborotga asoslangan holda o'z portfeliga aktivlar sotib olishi.

vii. Xodimning o'z qiziqishi bo'lgan qimmatli qog'ozlariga emitent bo'yicha tahliliy hisobot yozishda ishtirok etishi.

viii. Xodim emitent bilan potensial bitimlar bo'yicha har qanday mijozga maslahat beradigan jamoaning bir qismi bo'lib, uning ushbu emitent qimmatli qog'ozlariga shaxsiy qiziqishi mavjudligi.

ix. Xodimning mijozlarning shu kabi operatsiyalariga zarar yetkazadigan shaxsiy operatsiyalarni amalga oshirishi.

3.5 Yuqoridagi holatlar to'liq emas. Bank xodimlari manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini, shu jumladan potensial va ma'no jihatidan shunga o'xshash vaziyatlarni mustaqil ravishda baholashlari, keyinchalik axborotni bevosita rahbar va/yoki komplaens-nazorat boshqarmasiga yetkazishlari kerak.

4 BO'LIM. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISHNING UMUMIY TAMOIYILLARI

4.1. Manfaatlarga to'qnashuvi yuzaga kelgan vaziyatda bank mijozlarning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi. Xodim va bank o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, agar ushbu manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishning iloji bo'lmasa, bank manfaatlari xodimlarning shaxsiy manfaatlaridan ustun turadi.

4.2. Bank manfaatlar to'qnashuvini, shu jumladan potensial manfaatlar to'qnashuvini boshqarishda quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

– bankning barcha mijozlariga ular bilan yoki ularning nomidan va/yoki ularning topshirig'iga binoan maslahat berish va/yoki bitimlar tuzishda teng va adolatli munosabati;

– vakolatlarining chegaralanishi: Boshqaruv organlari va bank xodimlarining qarorlar qabul qilish vakolatlari Bank tomonidan manfaatlar to'qnashuvini istisno qilish darajasida aniq belgilab beriladi. Xodimlar o'zlarining xizmat vakolatlari va imkoniyatlaridan faqat Bank manfaatlarini ko'zlab foydalanishlari shart. Manfaatlarga to'qnashuviga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan manfaatdor shaxslar uni hal qilishda ishtirok etmasligi kerak;

– manfaatlar to'qnashuvi holatlarini, shu jumladan potensial holatlarni aniqlashda bank uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni adolatli va mustaqil baholashni amalga oshirish;

– Bank rahbarlari tomonidan o'z mas'uliyatini biladigan va tushunadigan hamda shubha va muammolar haqida erkin ma'lumot beradigan xodimlarning tegishli xulq-atvor madaniyatini saqlashini ta'minlanishi (“Yuqori ohang”);

- Bankdagi egallab turgan lavozimidan qat’i nazar, barcha xodimlarning manfaatlar to’qnashuvini, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo’lgan to’qnashuvlarni aniqlash va hal qilish jarayonlarida ishtirok etishi;
- manfaatlar to’qnashuvini va vujudga kelishi mumkin bo’lgan to’qnashuvlarni, shu jumladan, o’z ichiga qabul qilish, oldini olish va xavflarni minimallashtirishni oluvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- nodavlat, maxfiy, insayder ma’lumotini va manfaatlar to’qnashuvi to’g’risidagi, shu jumladan potensial manfaatlar to’qnashuvlari haqidagi axborotni o’rganish jarayonida olingan ma’lumotlarni himoya qilishni ta’minlash;
- ochiq muloqot muhitini yaratish, shu jumladan, Bank xodimlarini manfaatlar to’qnashuvi, shu jumladan, vujudga kelishi mumkin bo’lgan to’qnashuvlar to’g’risidagi ma’lumotlar yuzasidan xodim tomonidan o’z vaqtida aniqlangan axborotlar xabar qilinganligi va uni hal qilinganligi (oldi olinganligi) munosabati bilan xodimlarni sanksiyalar/ta’qiblardan himoya qilish va choralar ko’rilishi;
- normativ-huquqiy bazani yetarli darajada ta’minlash, shu jumladan manfaatlar to’qnashuvi xavfini va yuzaga kelishi ehtimoli bo’lgan manfaatlar to’qnashuvini kamaytirish uchun qoidalar va cheklovlarni belgilash;
- o’quv tadbirlarini o’tkazish, shu jumladan, kelgusida xodimlarni manfaatlar to’qnashuvini boshqarish sohasidagi asosiy qoidalariga oid bilimlari va tushunchalarini testdan o’tkazish;
- mijozlarning qimmatli qog’ozlari va pul mablag’larini o’z aktivlaridan alohida saqlanishini ta’minlash;
- nazorat qiluvchi organlar va tartibga soluvchi organlar bilan ochiq hamkorlik.

5 BO’LIM. MANFAATLAR TO’QNASHUVINI BOSHQARISH JARAYONI ISHTIROKCHILARI, ULARNING VAZIFALARI VA VAKOLATLARI

5.1 Bank Kuzatuv kengashi:

- ushbu Siyosatni tasdiqlaydi;
- manfaatlar to’qnashuvini, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo’lgan manfaatlar to’qnashuvlarni bartaraf etish sohasidagi ishlar jarayoni va ko’rilayotgan chora-tadbirlar ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi;
- manfaatlar to’qnashuvini, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo’lgan manfaatlar to’qnashuvlarni boshqarish doirasida amalga oshirilayotgan masalalar va tadbirlar bo’yicha qarorlar qabul qiladi.

5.2 Bank boshqaruvi:

- Bank faoliyatining qonuniy talablarga muvofiqligi, manfaatlar to’qnashuvini, yuzaga kelishi mumkin bo’lgan manfaatlar to’qnashuvlarni boshqarish uchun zarur bo’lgan tizimlar, jarayonlar, nazorat va tartiblarni tashkil etish orqali qonuniy talablarga rioya etilishini ta’minlash uchun javobgardir;
- ushbu Siyosat qoidalariga rioya etilishini, shu jumladan manfaatlar to’qnashuvini boshqarish tizimidagi, shu jumladan, yuzaga kelishi mumkin bo’lgan masalalarning boshqa kollegial organlar tomonidan samarali va tezkor hal etilishini ta’minlash ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- bankning kollegial organlari ishida komplaens-nazorat boshqarmasi vakillarining ishtiroki zarurligini belgilaydi.

5.3 Bankning komplaens-nazorat boshqarmasi xodimlari berilgan huquq va vakolatlarga muvofiq tarzda:

- manfaatlar to’qnashuvlarini, shu jumladan potensial to’qnashuvlarni boshqarish sohasida yagona metodologiyani ishlab chiqishda ishtirok etadi va yondashuvlar bir xilligini, va shu jumladan, konsalting yordamini ko’rsatishni qo’llab-quvvatlaydi;
- manfaatlar to’qnashuvi xavfini boshqarish va minimallashtirish maqsadida ichki me’yoriy hujjatlar va tashkiliy-ma’muriy hujjatlar, shartnomalar va bitimlarni, shu jumladan ularni

ishlab chiqish va tasdiqlash bosqichida tegishli ishlab chiquvchilarning iltimosiga binoan ekspertizadan o'tkazadi;

- manfaatlar to'qnashuvlarini, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvlarini aniqlash, tahlil qilish va hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'radi;

- manfaatlar to'qnashuvini boshqarish sohasida madaniyatni rivojlantirish bo'yicha tartib-taomillar va chora-tadbirlarni amalga oshiradi, shu jumladan, xodimlarni xabardor qilish, ushbu siyosatni amalga oshirish va boshqa standartlar va qoidalar, shuningdek, normativ talablardagi o'zgarishlar bo'yicha treninglar va maslahatlar beradi;

- masalalarni bank Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritadi;

- manfaatlar to'qnashuvini, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvlarini boshqarish bo'yicha rasmiy tekshiruvlarni boshlash va/yoki o'tkazishda ishtirok etish, shuningdek, zarur hollarda Bankning boshqa bo'linmalari xodimlarini jalb etishi mumkin;

- manfaatlar to'qnashuviga olib kelgan/ olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni sodir etish faktlari yoki rejalari to'g'risida bankning xavfsizlik bo'limiga xabar berish;

- manfaatlar to'qnashuvini boshqarish sohasida o'quv materiallarini tayyorlaydi;

- Bank xodimlariga manfaatlar to'qnashuvini, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvlarini boshqarish bo'yicha maslahatlar beradi.

5.4 Bankning umumiy xavfsizlik boshqarmasi xodimlari o'z vakolatlariga muvofiq tarzda:

- Bank xodimlarining manfaatlar to'qnashuviga olib kelgan/ olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarini aniqlaydi va ularga chek qo'yishga qaratilgan chora-tadbirlarni tayyorlaydi va amalga oshiradi;

- xizmat tekshiruvlarini boshlash, shuningdek o'z vakolatlari doirasida xizmat tekshiruvlarini o'tkazishda ishtirok etadi;

- Bank xodimlarining huquqbuzarliklarining aniqlangan faktlari bo'yicha materiallarni zarur hollarda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

- bank xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaradigan/yuzaga keltira oladigan harakatlar sodir etilishining rejalari yoki faktlari to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash bo'yicha komplaens-nazorat boshqarmasi bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

5.5 Kollegial organlar tarkibiga kiruvchi xodimlar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar:

- kollegial organning majlisida ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tamoyillarini, ushbu Siyosat talablarini, shuningdek, boshqa ichki normativ hujjatlarni hisobga oladi;

- bankning kollegial organi yig'ilishida ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan manfaatlar to'qnashuvi (shaxsiy manfaatdorlik), shu jumladan ularning qarindoshlari yo'qligini ta'minlaydi;

- Bankning kollegial organi yig'ilishida manfaatlar to'qnashuvi (shaxsiy manfaatdorlik) mavjudligi yoki uning yuzaga kelishi xavfi to'g'risida ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan, bankning kollegial organining boshqa a'zolari, shuningdek, bankning komplaens-nazorat bo'limi e'tiboriga bunday manfaatlar to'qnashuvi xavfini baholash va uni minimallashtirish usullari haqida ma'lumotlar yetkazilishini ta'minlaydi. Manfaatlar to'qnashuvi (shaxsiy manfaatdorlik), shu jumladan potensial holatlar haqida ma'lumot tegishli masala bo'yicha kollegial organ tomonidan qaror qabul qilinishidan oldin taqdim etilishi kerak;

- yuqorida keltirilgan ma'lumotlarning o'z vaqtida va to'liq taqdim etilishi uchun javobgardir;

- agar ularda manfaatlar (shaxsiy manfaatlar), shu jumladan potensial manfaatlar to'qnashuvlari mavjud bo'lsa, bankning kollegial organida ko'rib chiqilgan masalalarni muhokama qilish va ovoz berishda ishtirok etmaydi;

- manfaatlar to'qnashuvi (shaxsiy manfaatlar), shu jumladan potensial manfaatlar to'qnashuvlar mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish qoidalariga rioya qiladi.

5.6 Bankning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari:

- xodimlarni ushbu Siyosat talablari va axloqiy xulq-atvor me'yorlarini so'zsiz bajarishga yo'naltiradi, vijdonli xulq-atvor namunasini ko'rsatadi;

– mustaqil tarkibiy bo'linmalarning vakolatlari va funksional imkoniyatlaridan kelib chiqib, manfaatlar to'qnashuvi xavfi bo'lgan sohalar, faoliyat va biznes jarayonlarini, shu jumladan potensial manfaatlar to'qnashuvi xavfini aniqlaydi;

– manfaatlar to'qnashuvi, shu jumladan potensial to'qnashuv xavfini minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi va ko'radi, zarurat tug'ilganda komplaens nazorat boshqarmasi bilan hamkorlik qiladi;

– xodimlarni ushbu Siyosat va ushbu Siyosat qoidalari va tamoyillarini mukammallash maqsadida ishlab chiqilgan boshqa ichki normativ hujjatlar bilan tanishtiradi;

– ularga bevosita bo'ysunadigan xodimlar tomonidan ushbu Siyosat tamoyillari va talablariga rioya etilishini ta'minlaydi;

– xodimlarni ruhlantirish maqsadida ularning shaxsiy samaradorligini baholashda xodimlar tomonidan ushbu Siyosat talablarining bajarilishi benuqsonligi va samaradorligini hisobga oladi.

5.7 Bankning barcha xodimlari, egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar:

– manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni aniqlash va ushbu Siyosat talablarini amalga oshirish bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha komplaens nazorat boshqarmasi bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

– manfaatlar to'qnashuvi, shu jumladan, potensial to'qnashuvlar yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha oqilona choralar ko'radi;

– Bank/Bank mijozlari manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yadi, shu jumladan, Bank va uning mijozlari huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishiga yo'l qo'ymaydi;

– manfaatlar to'qnashuvini boshqarish sohasidagi Qonunchilik talablariga, ushbu siyosatga va bankning boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga, kasbiy etika tamoyillariga va biznesni yuritishning axloqiy normalariga, shuningdek, komplaens-nazorat boshqarmasi tomonidan belgilangan majburiyatlarga qat'iy rioya qiladi;

– o'z funksional vazifalarini bajarishda yoki dunyoning istalgan mamlakatida bank nomidan faoliyatni amalga oshirishda ushbu mamlakatning milliy qonunchiligi va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish sohasidagi xalqaro huquq normalari, shuningdek, ushbu siyosat va bankning boshqa ichki me'yoriy hujjatlari talablariga amal qiladi;

– manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar va qarorlar qabul qilishdan saqlanadi;

– manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar va vaziyatlar yuzaga kelgan har bir holat bo'yicha ma'lumotlarni o'z vaqtida komplaens-nazorat boshqarmasi tomonidan majburiy baholashni amalga oshirishi uchun ma'lum qiladi;

– manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha o'quv dasturlarini o'z vaqtida o'rganadi;

– ushbu siyosatning va bankning komplaens sohasidagi boshqa ichki me'yoriy hujjatlari buzilishi ma'lum bo'lgan har bir potensial/aniqlangan holat bo'yicha komplaens-nazorat idorasiga xabar beradi;

– yuzaga kelgan/yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda hamkasblariga va komplaens-nazorat boshqarmasiga yordam beradi;

– maxfiy, insayder ma'lumotlar bilan ishlash qoidalari rioya qiladi;

– ushbu siyosat tomonidan belgilangan bankdagi axloq tamoyillariga, yondashuvlar va talablarga rioya qiladi;

– agar ushbu siyosat qoidalari taalluqli xatti-harakatlar yoki boshqa masalalarni amalga oshirishning joizligi to'g'risida shubha mavjud bo'lgan taqdirda, to'g'ridan-to'g'ri rahbarga va/yoki komplaens nazorat boshqarmasiga tushuntirishlar olish uchun murojaat qiladi.

6 BO'LIM. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISH BOSQICHLARI

6.1 Manfaatlar to'qnashuvini, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'qnashuvlarni boshqarish bo'yicha ish samaradorligini oshirish, shuningdek, boshqaruv organlari va Bank xodimlarining harakatlarini aniq muvofiqlashtirish maqsadida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- manfaatlar to'qnashuvining oldini olish - manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish choralari ko'rish;
- manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va baholash – manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan potensial vaziyatlarni doimiy monitoring qilish va baholash;
- manfaatlar to'qnashuvini hal qilish - manfaatlar to'qnashuvini to'liq va tezkor hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

6.2 Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish:

6.2.1. Bank faoliyati jarayonida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha asosiy chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- bankning boshqaruv organlari va xodimlari tomonidan amaldagi qonunchilikda, Nizomda, bankning ichki normativ hujjatlarida, lavozim yo'riqnomalarida, shu jumladan bank operatsiyalari va bitimlarini amalga oshirishda belgilangan tartib-qoidalarga qat'iy rioya qilishi;
- vazifalar, vakolat va hisobot berish sohasini aniq belgilab beruvchi bankning tashkiliy tuzilmasini yaratish;
- manfaatlar to'qnashuviga, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvlariga yo'l qo'ymaslik, shuningdek qarorlar qabul qilishda mustaqillik tamoyilini hisobga olgan holda bank kollegial organlari tarkibini shakllantirish va tegishli kollegial organlar majlislarini o'tkazish;
- eng mas'uliyatli va keng ko'lamlil masalalar bo'yicha kollegial qarorlar qabul qilish amaliyotini joriy etish;
- ikki tomonlama nazorat amaliyotini joriy etish;
- ichki audit boshqarmasi tomonidan tekshirishlarni amalga oshirilishi;
- bankda ko'p bosqichli ichki nazorat tizimini joriy etish;
- axborot to'siqlarini o'rnatish;
- bo'limlarning mustaqilligi va axborot oqimlarini taqsimlashda "xizmat ehtiyoji" tamoyillarini ta'minlash;
- xodimlarning ayrim toifalari uchun mobil aloqadan foydalanishga cheklovlar o'rnatish;
- manfaatlar to'qnashuvi, shu jumladan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvlari bilan bog'liq masalalar haqida ma'lumot berish.

6.2.2. Manfaatlar to'qnashuvining, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'qnashuvlarning oldini olish, minimallashtirish va hal qilish maqsadida Bank xodimlardan komplaens nazorat boshqarmasi tomonidan belgilangan qo'shimcha (individual) majburiyatlarni bajarishni talab qilishi mumkin.

6.2.3. Axborot to'siqlari:

Biznes-jarayonni yoki bir nechta biznes-jarayonlarning o'zaro ta'sirini tashkil qilish, bunda ma'lumotlar biznes-jarayonning har bir bosqichi yoki bir nechta biznes-jarayonlar uchun chegaralangan va ma'lumotlarni uzatish faqat belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Bankning bo'linmalari axborotga ega bo'lishiga qarab ikki toifaga bo'linadi:

- funksional majburiyatlari tufayli o'z egasiga imtiyozlar yaratishi mumkin bo'lgan ommaviy bo'lmagan ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'linmalar;
- o'z funksional majburiyatlari tufayli o'z egasiga imtiyozlar yaratishi mumkin bo'lgan ommaviy bo'lmagan ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan bo'linmalar.

Ba'zi bank xodimlari, o'z vazifalari tufayli, ommaviy va ommaviy bo'lmagan ma'lumotlarni olishga huquqi bo'lishi kerak.

6.2.4. Axborot to'siqlarini saqlab qolish uchun Bank quyidagi usullardan foydalanadi:

- ma'lumotlarning bank binolarining ayrim ob'ektlari ichida joylashishini cheklash, ko'rsatilgan ma'lumotlarning jismoniy va axborot texnologiyalari xavfsizligini ta'minlash;
- turli bo'limlarning foydalanuvchilari o'rtasida axborot tizimlaridagi turli toifadagi ma'lumotlarga kirishni chegaralash;
- bank narxni belgilash axborotidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan xodimlarining ustidan to'g'ri nazoratini amalga oshirish, shuningdek, axborot to'siqlaridan foydalanish va ularga rioya qilish bo'yicha xodimlarni o'qitish;

- insayder ma'lumotlariga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga maxfiylikni saqlash bo'yicha muayyan majburiyatlarni yuklash;
- maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilish zarurati bo'lmagan hollarda unga kirishni cheklash;
- axborot oqimlarini taqsimlashda "xizmat zarurati" tamoyilidan foydalanish (6.2.6-bandga muvofiq);
- ommaviy bo'lmagan ma'lumotlarga ega xodimlar tomonidan shaxsiy maqsadlarda qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriluvchi operatsiyalarni monitoring qilish.

6.2.5. Bo'linmalar faoliyatining mustaqilligi:

Manfaatlar to'qnashuvini, shu jumladan potensial to'qnashuvni hal qilishda Bank Bankning barcha bo'linmalari faoliyatida zarur va oqilona darajadagi mustaqillikni ta'minlaydi.

Turli xil mijozlar uchun bir vaqtning o'zida operatsiyalarni amalga oshirish tufayli qo'shimcha chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- mijozlar bitimlarini bajarish uchun mas'ul bo'lgan rahbarlarni ajratish;
- mijozlar bitimlarini bajarishda ishtirok etadigan jamoalarni to'liq ajratish;
- operatsiyalarni (bitimlarni)amalga oshirish uchun taqiqlangan davrni belgilash;
- axborot to'siqlarini o'rnatish (6.2.3-bandga muvofiq).

6.2.6. Axborot oqimlarini taqsimlashda "xizmat zarurati" tamoyili:

Maxfiy, oshkora bo'lmagan va insayder ma'lumotlarning tarqalishini oldini olish maqsadida Bankning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan "xizmat zarurati" tamoyili joriy etilgan bo'lib, bunday ma'lumotlar ularni bevosita xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur emas bo'lgan xodimlarga ma'lumotlarni taqdim etish taqiqlanadi.

6.2.7. Mobil aloqadan foydalanish qoidalari:

Huquqbuzarliklarning oldini olish, shuningdek, xodimlar tomonidan mijozlarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish talablari bajarilishini ta'minlash uchun bank xodimlarning ayrim toifalariga nisbatan o'zlarining rasmiy va funksional vazifalarini bajarishda mobil aloqadan foydalanishga cheklov belgilaydi. Bank amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq statsionar telefon aloqasidan foydalangan holda amalga oshiriladigan bunday toifadagi xodimlarning muzokaralarini qayd etish va nazorat qilishni nazarda tutuvchi texnologiyalardan foydalanishi mumkin.

Mijozlarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish to'g'risidagi arizalarini, shuningdek, boshqa arizalarni (jismoniy va yuridik shaxslarning arizalari, shikoyatlari, takliflari), xususan, aloqa markazi rahbariyati, kotibiyat rahbariyati qabul qilish va tasdiqlashda ishtirok etuvchi bank xodimlari muzokaralarni faqat yozib olingan tarza bank telefon liniyasi orqali amalga oshirishlari kerak.

6.2.8. Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvlarining oqibatlarini aniqlash, nazorat qilish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar:

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat doirasida mijozlarga xizmat ko'rsatishda bank:

- mijozlarga xizmat ko'rsatishda, tegishli xizmatlarni ko'rsatishdan oldin (mahsulot ishlab chiqishda, marketing materiallarida, bitimlarni muvofiqlashtirishda va hokazo) yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini aniqlaydi;
- aniqlangan manfaatlar to'qnashuvlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi (masalan, nizolarga olib keladigan bitimlardan birini rad etish, bo'linmalar o'rtasida axborot to'siqlarini yaratish, loyiha guruhlarini ajratish va h. k.);
- manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda mijozning bank manfaatlariga nisbatan ustuvorligi ta'minlanadi;
- mijozlarning buyurtmalari asosida mijoz manfaatlarini ko'zlab moliyaviy vositalar bilan operatsiyalarni (bitimlarni) amalga oshiradi. Tegishli ko'rsatmalarsiz operatsiyalarni (bitimlarni) amaldagi qonun hujjatlarida va mijoz bilan tuzilgan shartnomada belgilangan vakolatlar doirasida amalga oshirishga yo'l qo'yiladi;

– mijozlarning buyurtmalarini ularning talablariga muvofiq, mavjud sharoitlardagi eng yaxshi shartlarda va imkon qadar tezroq, talab qilinadigan professionallik, puxtalik bilan va vijdonan bajaradi;

– turli faoliyat turlarini amalga oshiruvchi bo'limlar (xodimlar) o'rtasida, agar bunday to'siqlarning yo'qligi manfaatlar to'qnashuviga, shu jumladan Bank (uning xodimlari) va mijozlar o'rtasida to'qnashuvga olib keladigan bo'lsa, axborot to'siqlarining yaratilishini ta'minlaydi;

– mijozning (emitentning) ommaviy bo'lmagan, maxfiy va/yoki ichki ma'lumotlariga ega bo'lgan xodimlar doirasini cheklaydi, shu jumladan ushbu siyosatda ko'zda tutilgan "xizmat zarurati" tamoyilini amalga oshiradi (6.2.6-bandga muvofiq);

– Bank tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvlarini aniqlash va bartaraf etish uchun zarur bo'lgan ushbu Siyosatda nazarda tutilgan boshqa choralarni amalga oshiradi.

Agar bank yoki uning xodimi manfaatlari to'qnashuvini to'liq minimallashtirish (bartaraf etishga) erishilmasa, Bank mijozni, shu jumladan qimmatli qog'ozlar emitentini manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabardor qiladi, shuningdek uni hal qilish bo'yicha ko'rilgan choralar, unga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan bitim (bitimlar)ga muvofiq amaldagi qonunchilik va mijoz bilan tuzilgan shartnoma talablariga muvofiq mijozga boshqa ma'lumotlarni taqdim etadi.

6.2.9. Manfaatlari to'qnashuvi haqida axborotni oshkor qilish:

Manfaatlar to'qnashuvi xavfini, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni minimallashtirish va oldini olish Bankda bunday manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni xodimlar tomonidan oshkor qilish mexanizmi orqali amalga oshiriladi, shu jumladan:

– ishga qabul qilishda;

– manfaatlar to'qnashuvining, shu jumladan potensial holatlarning paydo bo'lishiga olib kelgan va/yoki olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar yuzaga kelganda;

– har yillik asosda;

– boshqa hollarda, voqealar sodir bo'lgunga qadar va/yoki ma'lum turdagi ma'lumotlarni olishdan oldin.

Quyidagi ma'lumotlar komplaens nazorat boshqarmasiga majburiy ravishda oshkor qilinishi kerak:

– xodimlarning bankdan tashqari faoliyatni amalga oshirishi, shu jumladan uchinchi shaxslarning ustav kapitalidagi ishtiroki (ulushlari uyushgan kim oshdi savdolarida sotiladigan tashkilotlar bundan mustasno, agar bunday ishtirok ustav kapitalining 5 foizidan oshmasa), uchinchi shaxslarning boshqaruv organlarida ishtirok etishi, shu jumladan, uchinchi shaxslarning taftish komissiyalari, tadbirkorlik faoliyatida ishtiroki va to'liq bo'lmagan ishdagi faoliyati;

– xodimga uchinchi shaxslarning boshqaruv organlarida va (yoki) ustav kapitalida (aktsiyalari uyushgan kim oshdi savdolarida sotiladigan tashkilotlar bundan mustasno, agar bunday ishtirok ustav kapitalining 5 foizidan oshmasa) ishtirok etishi to'g'risida va ish takliflar kelib tushganligi to'g'risida.

– qarindoshlarning Bankda birgalikda ishlashi, shu jumladan qarindoshlarning biznes jarayonlarida va/yoki kollegial organlarda birgalikda ishtirok etishi (shu jumladan, qarindoshlarning qo'shma biznes jarayonida ishtirok etish holatlari);

– xodimning va/yoki uning qarindoshlarining ahvoli o'zgarganligi, shu jumladan Bankda bajaradigan xizmat yoki funksional vazifalari o'zgarganda;

– xodimning yaqin qarindoshlarining ustav kapitalidagi ishtiroki (ulushlari uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorida sotiladigan tashkilotlar bundan mustasno, agar bunday ishtirok ustav kapitalining 5 foizidan oshmasa) va uchinchi shaxslarning boshqaruv organlari, ularning ushbu tashkilotlar bankning raqobatchilari, mijozlari va/yoki kontragentlari bo'lgan hollarda va bu holatlar o'zgargan taqdirdagi tadbirkorlik faoliyati;

– manfaatlar to'qnashuvining paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar, shu jumladan potensial holatlar to'g'risida.

Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga sabab bo'lgan va/yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar, shu jumladan potensial holatlar haqida kelib tushgan ma'lumotlar bank uchun

yuzaga keladigan xatarlarni baholash va ularni hal etishning eng maqbul shaklini tanlash maqsadida komplaens-nazorat boshqarmasining vakolatli xodimi tomonidan tekshirilishi kerak.

Manfaatlar to'qnashuvi, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'qnashuvlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish Bankni va uning xodimlarini uni hal qilish va kelajakda shunga o'xshash vaziyatlarning oldini olish bo'yicha samarali tashkiliy va ma'muriy choralarini qo'llash va ta'minlash majburiyatidan ozod qilmaydi. Bank xodimlari manfaatlar to'qnashuvini, shu jumladan, o'zlarining lavozim majburiyatlari va malaka darajasiga qarab, mumkin bo'lgan to'qnashuvlarni hal qilish yo'llarini taklif qilishlari kerak.

Agar ushbu manfaatlar to'qnashuvini hal qilish tartibi va qabul qilingan chora-tadbirlar xavfni bartaraf etmasa, bank mijozga nisbatan manfaatlarining haqiqiy yoki potensial to'qnashuvi haqida ma'lumot berishi kerak.

Bank xodimlarining va/yoki ularning qarindoshlarining uy-joy mulkdorlari shirkatlari, garaj kooperativlari, bog'dorchilik, sabzavotchilik, dacha iste'mol kooperativlari, kasaba uyushma tashkilotlaridagi faoliyati va/yoki ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor etilishi shart emas.

Bankning affillangan shaxsi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunga muvofiq belgilangan tartibda va muddatlarda tegishli ma'lumotlarni taqdim etish orqali o'zining affillanganligi to'g'risida xabardor qilishi shart.

Affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan ularning yozma bildirishlari va bitimlar bo'yicha qabul qilingan qarorlarning to'liq tahriri, qaror qabul qilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar Bankning yillik hisobotining bir qismi hisoblanadi.

6.2.10. Nazorat ro'yxatlari:

Bank, moliyaviy bozorlarda faoliyat yuritib, manfaatlar to'qnashuvlarini boshqarishning asosiy mexanizmlari bo'lgan va bank faoliyatini monitoring qilish, potensial manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va uni tezda hal qilish imkonini beruvchi nazorat ro'yxatlarining saqlanishi va monitoringini amalga oshiradi.

6.2.11. Sovg'alar va vakillik xarajatlarini bilan ishlash:

Bank, bank xodimlari tomonidan olingan/berilgan sovg'alarni, shuningdek, vakillik xarajatlarini manfaatlar to'qnashuvining potensial manbai sifatida ko'radi.

Bank xodimlari mijozlar/sheriklar bilan biznes munosabatlarini o'rnatishi va qo'llab-quvvatlashi, shu jumladan, potensial mijozlar/kontragentlar tomonidan rasmiy veb-saytlarida ommaviy ravishda oshkor qilingan korrupsiyaga qarshi choralar bo'yicha cheklovlarni buzmasligi kerak.

6.3. Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va baholash

6.3.1. Bankning barcha xodimlari egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar bankning barcha jarayonlarida, shu jumladan, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish va yangi biznes-jarayonlarni shakllantirish bo'yicha 6.2-bo'limda keltirilgan chora-tadbirlardan foydalangan holda, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash amalga oshiriladi.

6.3.2. Mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi ham tekshiruvlar davomida, shu jumladan xavfsizlik va ichki audit bo'limlarini jalb qilgan holda aniqlanadi va baholanadi.

6.3.3. Bankda "Ishonch telefoni" – bank xodimlari tomonidan shaxsiy manfaatlar va/yoki suiiste'mollik holatlari, shuningdek, Bank xodimlari o'rtasida hal qilinmagan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi bilan bog'liq vaziyatlar yoki bunday manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni yashirish o'g'risida xabardor qilish uchun xavfsiz va maxfiy kanal faoliyat yuritadi. "Ishonch telefoni" ishi doimiy ravishda axborot olishning barcha mavjud kanallari va murojaatlarni avtomatlashtirilgan qabul qilishning texnik vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi, ularning rekvizitlari bankning Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida keltirilgan.

6.3.4. Xodim tomonidan yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi yoki uning yuzaga kelishi ehtimoli to'g'risida ma'lumot aniqlangan taqdirda, xodim o'z bevosita rahbarini va/yoki komplaens nazorat boshqarmasini darhol xabardor qilishi shart. To'g'ridan-to'g'ri rahbarga murojaat qilgan taqdirda va undan keyin aniqlangan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yoki bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'lmasa yoki qabul qilingan chora-tadbirlar manfaatlar to'qnashuvini

bartaraf etishga olib kelmasa, xodim bu haqda komplaens nazorat boshqarmasiga xabar berishi shart.

6.3.5. Bankning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari manfaatlar to'qnashuvini, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'qnashuvlarni bartaraf etish bo'yicha oqilona va yetarli choralarni ko'rishlari shart.

6.3.6. Agar bank xodimi va/yoki uning rahbari manfaatlar to'qnashuvi mavjudligiga shubha qilsa yoki manfaatlar to'qnashuvi va/yoki uning oqibatlari xavfini kamaytirish usulidan shubha qilsa, xodim bankning komplaens nazorat boshqarmasidan yordam so'rashi kerak.

6.4. Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish

6.4.1. Manfaatlar to'qnashuvlarini, shu jumladan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'qnashuvlarni boshqarish uchun Bank ularni hal qilishning quyidagi mexanizmlarini qo'llaydi:

– xodimning shaxsiy manfaatlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan muayyan ma'lumotlarga kirishini cheklash;

– xodimni ixtiyoriy ravishda muhokamada ishtirok etishni rad etishi yoki uni (doimiy yoki vaqtinchalik) qaror qabul qilish jarayonidan yoki manfaatlar to'qnashuvi mavzusiga nisbatan boshqa ta'sirlardan chetlashtirish;

– xodimning mehnat vazifalarini va vakolatlarini o'zgartirish;

– xodim tomonidan o'ziga tegishli bo'lgan, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan qimmatli qog'ozlarni ishonchli boshqarmaga topshirishi;

– xodimning manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltiradigan, shu jumladan shunday holatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlik predmetidan voz kechishi;

– manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lgan taqdirda, xodimni tegishli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum qilish;

– xodimning o'z xohishi bilan tashkilotdan xodimni ishdan bo'shatish;

– xodimni intizomiy huquqbuzarlik uchun ish beruvchining tashabbusi bilan ishdan bo'shatish, shu jumladan, mehnat qonunchiligiga va xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq unga yuklangan mehnat majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik ham bunga asos bo'ladi.

6.4.2. Manfaatlar to'qnashuvini, shu jumladan potensial to'qnashuvlarni boshqarish va hal qilish bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlar, xususan, quyidagilarga bog'liq:

– manfaatlar to'qnashuvi ko'lami;

– manfaatlar to'qnashuvining tabiati;

– uning kelib chiqish shartlari;

– manfaatlar to'qnashuvi sodir bo'lgan taqdirda bankka, bank xodimlariga, ularning mijozlariga, kontragentlarga va boshqa uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar.

6.4.3. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun quyidagilar taqiqlanadi:

– xodimning bank manfaatlaridan farqli bo'lgan, shu jumladan (lekin bu bilan cheklanmagan holda) ustav kapitalida yoki bunday tashkilotlarning boshqaruv organlarida xodimning va/yoki uning qarindoshlarining ustun ishtiroki bo'lgan tashkilotlar bilan munosabatlarda bankni vakillik qilishi;

– agar ishchi va/yoki uning qarindoshi bitimga/shartnomaga/kontraktga qiziqish bildirsam yoki bunday bitimdan bevosita yoki bilvosita foyda olishlari mumkin bo'lsa, qachonki potensial foyda va foizlar to'g'risidagi ma'lumotlar komplaens nazorat boshqarmasiga oshkor etilmagan va boshqarma bu harakatga yozma ravishda ruxsat bermagan bo'lsa, bitim/shartnoma/kontrakt tuzishda/tuzatishda qatnashish va bunday bitimdan foyda olishi;

– xodimning xizmat vazifalarini bajarish jarayonida olingan (ma'lum bo'lgan) maxfiy ma'lumotlardan shaxsiy maqsadlarda foydalanishi;

– ish vaqtida uchinchi shaxslarning boshqaruv organlarida ishtirok etish, uchinchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, uchinchi shaxslarga maslahat yoki agentlik xizmatlari ko'rsatish, uchinchi shaxslar uchun yarim kunlik ish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish;

– tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish (shu jumladan, yuridik shaxslarning ustav kapitalida yoki boshqaruvida ishtirok etish), shu jumladan, bankdagi faoliyat davomida aniqlangan ma'lumotlarni qo'llagan holda, bankning ish munosabatlari va imkoniyatlaridan foydalanish taqiqlangan bo'lib, belgilangan tartibda bank tomonidan bevosita xodimga ishonib topshirilgan, ya'ni xodimning kasbiy majburiyatlarini bajarish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat yoki ishtirok etish hollari bundan mustasnodir.

– qarindoshlarning birining ma'muriy yoki funktsional bo'ysunishida birgalikdagi ishlashi;
– xodimning o'z qarindoshiga - Bank xodimga nisbatan xizmat tekshiruvlarini o'tkazishi;
– nazorat funktsiyalarini amalga oshiruvchi bank bo'linmasi xodimi tomonidan tekshirishlar va operatsiyalarga mas'ul bo'lgan xodim uning qarindoshi bo'lgan taqdirda ish yuzasidan ushbu xodim bilan kelishishi;

– Bank xodimi tomonidan uning qarindoshi ishlayotgan bo'linma faoliyatini nazorat qilish va tekshirish tartib-qoidalarini bajarishi;

– Bank xodimining amalga oshirilishi uchun qarindoshi mas'ul bo'lgan va/yoki qarindoshi muhim qarorlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan loyihada har qanday rolni bajarishi.

6.4.4. 6.4.3-bandda keltirilgan cheklovlar va manfaatlar to'qnashuvini hal qilish usullari ro'yxati to'liq emas. Har bir aniq holatda manfaatlar to'qnashuvini hal qilish uchun amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa choralar ko'rilishi mumkin.

6.4.5. Agar manfaatlar to'qnashuvini, shu jumladan potensial to'qnashuvni joriy sharoitda mavjud usullar bilan hal qilishning imkoni bo'lmasa, Bankni obro' xavfi, huquqiy, qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilmaslik xavfi va boshqa xavflarning oldini olish uchun Bank muayyan operatsiya yoki xizmatni amalga oshirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

6.5. Aksiyadorlar o'rtasidagi, Bank boshqaruv organlari va aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvlarini hisobga olish Bankning korporativ maslahatchisi zimmasiga yuklanadi. Bankning korporativ maslahatchisi nizoga dastlabki bahoni beradi, masalaning mohiyati bo'yicha kerakli hujjatlarni tayyorlaydi va ularni ushbu nizoni ko'rib chiqish vakolatiga ega bank organiga o'tkazadi.

Aksiyadorlar o'rtasida, bank boshqaruv organlari va aksiyadorlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvini hal qilish maqsadida:

- Kuzatuv Kengashining mustaqil a'zosi bank aksiyadorlari o'rtasida yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda vositachilik qilishi mumkin;

- korporativ maslahatchi yoki bankning vakolatli organi aksiyadorlar o'rtasidagi muzokaralarda ishtirok etishi, aksiyadorlarga o'z ixtiyorida bo'lgan va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq axborot va hujjatlarni taqdim etishi, bank qonunchiligi, ustavi va ichki hujjatlari normalarini tushuntirishi mumkin.

6.6. Manfaatlar to'qnashuvi va bank o'rtasida o'z majburiyatlarining mohiyati bo'yicha hech qanday nizo bo'lmasa, ammo majburiyatlarni amalga oshirish tartibi, usuli, muddati va boshqa shartlari haqida kelishmovchiliklar mavjud bo'lgan taqdirda, bank manfaatlar to'qnashuvi ishtirokchisiga yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni hal qilish to'g'risida va bank aktsiyadorning talabini qondira oladigan shartlarni belgilash yuzasidan taklif kiritishi kerak.

7 BO'LIM. BANK VA XODIMLARINING JAVOBGARLIGI

7.1. Bankning barcha xodimlari, egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, ushbu Siyosat tamoyillari va talablariga rioya etilishi, shuningdek, o'zlariga bo'ysunuvchi shaxslarning ushbu tamoyillar va talablarni buzuvchi harakatlari (harakatsizligi) uchun shaxsan javobgardirlar.

7.2. Bank o'z xodimlari tomonidan sodir etilgan, manfaatlar to'qnashuviga olib kelgan huquqbuzarliklar uchun xodimlarni javobgarlikka tortishi mumkin, shu jumladan, sababli har bir asosli shubha yoki aniqlangan fakt bo'yicha amaldagi qonunchilikda ruxsat etilgan doirada rasmiy tekshiruvlar o'tkazadi.

7.3. Ushbu siyosat talablarini va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish sohasidagi boshqa ichki normativ hujjatlarni xizmat tekshiruv natijalariga asosan buzganlikda aybdor deb topilgan xodimlar intizomiy va hatto ishdan bo'shatilish, shuningdek amaldagi qonunchilikka muvofiq fuqarolik javobgarligiga jalb qilinishi mumkin.

7.4. Sud qarori bilan aybdor deb topilgan shaxslar amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va asoslar bo'yicha ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

8 BO'LIM. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Siyosatning yangi tahriri qabul qilinishidan oldin amaldagi milliy va xalqaro qonunchilikda o'zgarishlar yuz bergan taqdirda, ushbu hujjatning ularga zid bo'lmagan qismlari amal qiladi.

8.2. Agar ushbu siyosatning qoidalari va talablarini interpretatsiya qilish, ularning bir yoki bir nechta vaziyatlarga tatbiq etilishi haqida shubha tug'lsa, ularni izohlash bo'yicha qaror qabul qilishi mumkin bo'lgan yagona vakolatli bo'linma bankning komplaens nazorat boshqarmasi hisoblanadi.

8.3. Bankning barcha xodimlari bankdagi amaldagi tartibga muvofiq ushbu siyosatning qoidalari bilan tanishishlari kerak.

8.4. Komplaens nazorat boshqarmasi o'zgaruvchan ichki va tashqi sharoitlarni hisobga olgan holda Bankning komplaens-nazorat tizimi samaradorligini doimiy ravishda nazorat qilib boradi. Natijalar Bank Kuzatuv kengashiga ma'lum qilinadi. Bank Kuzatuv kengashi bankning komplaens-nazorat tizimining samaradorligini baholaydi, shuningdek, uning samarali ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lganda kuchaytiradi.

8.5. Ushbu siyosatga o'zgartish va qo'shimchalar bankning komplaens nazorat boshqarmasi tomonidan kiritiladi va ular bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanganidan keyin kuchga kiradi.

Kiritildi:

Yuridik boshqarmasi boshlig'i

T. Zanaxov

Kelishildi:

Boshqaruv Raisi

Sh. Akramov

Boshqaruv Raisi O'rinbosari

E. Nadjimitdinov

Boshqaruv Raisi O'rinbosari

M. Nurutdinova

Bosh hisobchi

B. Shamansurova

Ichki audit boshqarmasi boshlig'i

U. Babayev